

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

3-kurs “B” guruh talabasi Tojiboyeva Feruzaning

KURS ISHI



MAVZU: Muzayyana Alaviya va uning dil dostonlari

Ilmiy rahbar: K. SHaxobov

Andijon-2014

1. K i r i sh
2. Shoirra davr nafasi bilan
3. Dil dostonlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Muzayyana Alaviya ajoyib inson, olim, shoira va faol jamoatchi va hassos shoira ham edi. Uning “Bugungi men” sarlavhali she’ri 1927 yilda “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida chop etilgan edi. Ana shu yillardan boshlab Muzayyana Alaviyaning she’r va dostonlari, hikoya, ocherk va publitsistik maqolalari gazeta, jurnal hamda turli adabiy-badiiy almanaxlar sahifalaridan joy oldi.

U ajoyib olim, shoira va publitsist bo‘libgina qolmay, omma orasida keng tanilgan faol jamoatchi, otashin targ‘ibotchi va tashviqotchi ham edi. Muzayyana Alaviya respublikamizning viloyat, tuman, shahar va qishloqlarida tez-tez bo‘lib, yoshlar tarbiyasi borasida samarali ishlarni amalga oshirgan.

Muzayyana Alaviyaning radio va televidenie orqali o‘tkazgan mazmundor suhbatlarini eshitganlar orasida to‘lqinlanmagan, hayajonlanmagan kishilar bo‘lmasdi.

Muzayyana Alaviya 1909 yilda Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi “Mo‘minobod” mahallasida tug‘ilgan. Bahor faslining fayzli navro‘z kunlari Akmalxon va Mo‘tabarxonlar oilasida to‘ng‘ich farzand dunyoga keldi. Muzayyananing buvisi Habibaxon aya Olmaliq tog‘lari va atrofdagi qir-adirlardan olib kelgan quchoq-quchoq qizil, targ‘il, sariq lolalarni ko‘rib:- “Chaqaloq yer-ko‘k bahor libosini kiyib, hamayoq lolalar bilan bezangan vaqtda tug‘ildi, oti ham bahorga munosib bo‘lsin”, deb nevarasining ismini “Muzayyan” (bezangan, ziynatlangan) qo‘ydilar.¹

Muzayyana enagasi Oyimbibishdan bir nechta xalq qo‘shiqlarini yozib olgan:

Oq edi bilaklarim,

Ko‘p edi tilaklarim.

Tilagimga yetolmay

Ezildi yuraklarim

Toqatim yo‘q turay desam

Madorim yo‘q yuray desam

Yorim yo‘qdur suyay desam,

Kulbam yo‘qdur kiray desam.²

¹ Махбуба Қодирова. Музайяна Алавия. Т., Ф.Фулум номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968, 10-бет

² Махбуба Қодирова. Музайяна Алавия. Т., Ф.Фулум номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968, 16-17-бетлар

Muzayyananing qo‘shiqqa havasini sezgan enagasi, unga ko‘chadan eshitib kelgan qo‘shiqlarini goh kulib, goh yig‘lab aytib berardi. Muzayyana yozib olgan qo‘shiqlarini tushunishga, uning mazmunini chaqishga harakat qilardi.

Muzayyananing onasi Mo‘tabarxon kitobxon ayol edi. U zo‘r berib Navoiy, Fuzuliy, Huvaydo, Mashrab asarlarini xushovoz bilan ta‘sir lanib o‘qirdi.

Muzayyananing kechayu-kunduz yo‘ldoshi kitob o‘qish, eshitgan qo‘shiq, ertak-hikoyalarini yozib olishdan iborat bo‘lib qoldi. U ko‘pincha bo‘sh vaqtlarida o‘rtoqlari bilan iroqi, chamandagul va zar do‘ppi tikishib, chevarchilik ham qilardi.

Muzayyananing otasi Akmalxon mutassib bo‘lsa ham, juda mulla odam edi. U qorilikka o‘qigan, she‘riyatga moyil kishi bo‘lgan. Akmalxon “Osiy” taxallusida fors, arab tillarida, hajviy she‘rlarini esa o‘zbek tilida yozardi. Muzayyana otasining yozgan bir hajviy she‘rini shunday eslaydi:

“Men ham kichik qizcha edim: otam dehqonchilik qilib, suv tanqisligi sababli paxtadan kam hosil olib, qiynalgan kezlarda, paxta zavodining xo‘jayiniga qarata quyidagi she‘r bilan murojjaat qilgan ekan:

*Kendin, boyga arzim bor,
Mardikordan qarzim bor
Bermasalar uy charvon,
Paxta ekmas shartim bor
O‘lsin mirob Ismadyor,
Suvni sotli beshumor
Lola birla Beshkapa,
Suv deb yig‘lar zoru zor*

Ayrimlarga qaraganda, bu murabba‘ni keyinchalik odamlar qo‘shiq qilib aytib yurganlar”.¹

Keyinchalik Piskent qishlog‘ida ham “qo‘shchi soyuzi” tuzildi. Muzayyanalar oilasiga tog‘asi Abdulla Alaviy turli yangiliklar bilan birga gazeta va jurnallar olib kelardi. Muzayyana bu jurnal va gazetalarni o‘rtoqdariga ham o‘qib berardi. Muzayyanaga yangicha darslar o‘qitish uchun Abdulla Alaviy bolalar uyining murabbiyasi Masfiya ismli tatar ayolini uyga olib keladi.

¹ Махбуба Қодирова. Музайяна Алавия. Т., Ф.Фуллом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968, 18-19-бетлар

“Birinchi muallimimiz Masfiya tomonidan tuzilgan dars jadvalida hisob, ona tili va jug‘rofiya bilan birga din darsi ham bor edi. Muallimimiz namozni hech kanda qilmas edi”. “Bir kuni dars qilib o‘tirganimizda otam ustimizga kelib qoldi. Masfiya opa darrov “Muhammadiya” degan diniy kitobni ochib bizga o‘qiy boshladi. Buni ko‘rgan otam Masfiya opadan behad xursand bo‘ldi. Hech qaerga chiqishga ruxsat bermaydigan otam Masfiya opaning uyiga paranjida borib kelishimga qarshilik qilmas edi”, deb yozadi Muzayyana Alaviya.¹

Abdullaxon Muzayyanani ruscha o‘qitish maqsadida 1922-23 yillarda uyga bir muallima boshlab keladi. U Lida ismli rus ayoli edi. U qiynalib bo‘lsa ham o‘zbekcha gapirishga intilardi. Muzayyana Lida orqali Pushkin, Nekrasov, Gogol, Maksim Gorkiy kabi rus yozuvchi va shoirlarining asarlari bilan tanishdi.

Abdulla Alaviy singlisining bilimini oshirish ustida doimo g‘amxo‘rlik qilardi. Lidalar oislasi Pskkentdan ko‘chib ketgandan keyin, u yana Shamsijahon ismli muallimani Muzayyanalarnikiga olib keladi. U ikkinchi bor Toshkentga kelganda Shamsijahon opaga Muzayyananigina emas, balki uning o‘rtoqlari Lutfiniso va mahalladagi boshqa qizlarni ham o‘qitishni iltimos qiladi. Shundan keyin o‘quvchilar soni 13 qizga yetadi. Ammo ularni yangicha savodli qilish, yangiliklar bilan tanishtirish ko‘proq Muzayyananing zimmasiga tushardi. Bu paytlarga kelib fikri va tushunchasi ancha o‘sib qolgan Muzayyana muallimalaridan, ayniqsa Lidadan eshitgan yangiliklarni qizlarga tushuntirishga harakat qilardi. Muzayyananing so‘znggi muallimasi Mohira Sayfulina qizlarga geografiya va hisob fanlarini o‘zlashtirishda katta mehribonlik ko‘rsatadi.

1939 yili Muzayyananing hayotida quvonchli voqea ro‘y beradi. U kasal otasini ko‘rgani borganida to‘qqiz yil bedarak ketgan turmush o‘rtog‘i Lutfillaxon kirib keladi. Turli shum xabarlarni eshitaverib, Lutfillaxonning o‘lganiga ishonish darajasiga borib qolgan Muzayyana o‘z ko‘zlariga ishonmas, shodligidan ham quvonar, ham yig‘lar edi. Uch-to‘rt oylik yosh kelinchakligidan qolgan Muzayyananing qalbida yana tabassum, nur paydo bo‘ldi.

Ayni shu yillarda Muzayyana tuman bo‘yicha ochilgan kurslarda metodist bo‘lib ishladi. U boshqa tumandan kelgan o‘qituvchilarga namunali dars o‘tish uchun konsultatsiyalar beradi. Maktabdagi adabiy to‘garaklarga rahbarlik qilib, ayrim yozuvchilarning asarlarini o‘qib, tushuntirish, ularning g‘oyaviy-badiiy tomonlarini tahlil qilib berardi.

O‘zining g‘ayrati, tinimsiz mehnati, uzoq yillar maktablarda dars berib kelganligi bilan, yuksak pedagogik mahorati va xalq maorifini taraqqiy ettirishdagi katta xizmatlari bilan Muzayyana Alaviya Respublikamizda “A’lochi o‘qituvchi” bo‘lib tanilgandir.

¹ Ўша китоб, 22-бет

Xalq og‘zaki ijodiyotiga yoshlikdan mehr qo‘ygan Muzayyana 1940 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutining folklor sektoriga ilmiy xodim bo‘lib ishga o‘tadi va shundan e‘tiboran uning keng ko‘lamdagi olimalik faoliyati va ilm-fan sohasidagi izlanishlari boshlanib ketadi. Bizning ishimizning dolzarbligi Muzayyana Alaviya ijodining shu paytgacha juda kam o‘rganilganligidan kelib chiqib belgilanadi.

1. DAVR NAFASI BILAN

Muzayyana Alaviya respublikamizning yirik folklori bo‘libgina qolmay, o‘zbek adabiyotining rivojlanishida o‘zining munosib hissasini qo‘shgan iqtidorli shoira va adiba hamdir. “Muzayyana opa o‘zi tarix, o‘zi poeziya”, deb atagan edi akademik Vohid Zohidov.

“20-yillar o‘zbek sovet adabiyotining poeziya frontida Hamza Hakimzoda, Sadridin Ayniy boshliq, G‘ayratiy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Mirtemir, Yashin va Oydin katta rol o‘ynaydilar. Shuningdek, Botu, Shokir Sulaymon, Oltoy, Jig‘oy, Sobir Abdulla, Ergash, Muzayyana Alaviya va boshqalar ko‘pgina asarlari bilan maydonga chiqdilar.¹

Yosh Muzayyananing ilk ijodi Samarqand Bilim yurtida o‘qib yurgan davrlarida, Samarqand adabiy muhitida shakllandi. U Hamid Olimjon, Toshpo‘la Sa‘diy, Hakim Nazir, Shukur Sa‘dulla kabi umidli iste‘dod egalari bilan maktabdosh edi. Muzayyana to‘garaklar, adabiy kechalarda faol qatnashib ijodini sinovdan o‘tkaza boshladi.

Muzayyana “Bugungi men” degan birinchi she‘rini yozib, 1927 yili “Maorif va o‘qituvchi” jurnalidan bostirib chiqaradi.

*Ko‘zlarimda erkin umid o‘ynaydi,
Qizil Sharqning so‘nmas tilagi kabi
Ko‘klarimda o‘tli orzu qaynaydi,
Go‘zal Sharqning tinmas yuragi kabi.*

*Kishilarni parchaladim, sindirdim
Qumlik degan balo dahshatni ezib
G‘ayratimdan gul lolalar undirdim,
Tilaklar-la bilim yo‘lini kezib.²*

¹ “Ўзбек совет адабиёти чоерки”, 1-том, Т., Фан, 1961, Б.83-бет

² Музейяна Алавия. “Севинчларим” тўплами. Т., Ўздабиёт нашр, 1959, 18-бет

Erkin hayotdan insonning qalbidan qaynab chiqqan orzularini ifodalovchi bu misralar hali badiiy pishiq bo‘lmasa-da, ayol qalb sadosini ifodalash jihatidan xarakterlidir. Chunki o‘sha davrda shunday qarash hukmron edi. Shoira ilm-ma’rifatni egallash uchun kurashga otlanadi:

*Boshimdagi zulmatlarni yo‘qotdim,
Ma’rifatga bugun o‘zimni otdim.¹*

Muzayyananing “Tiniq yog‘du”, 1928 yilda yozgan “Erk yo‘lida” she’rlarida ham o‘sha davr ruhi, erkin mehnat aks etgan.

Muzayyana o‘qiyotgan Samarqand Bilim yurtida qizlar juda oz edi. Shuning uchun ham biror qizning Bilim yurti qoshida havaskorlar to‘garagiga qatnashishi, majlis yoki konferensiyalarda so‘zga chiqishi juda katta voqe hisoblanardi. Xalqaro xotin-qizlar bayrami 8-Martga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda Bilim yurtining talabalaridan Robiya Ahmedova ma’ruza qiladi. Gulsum Rahimova so‘zga chiqadi. Dugonalarining san’atidan zavqlangan Muzayyana “Erkincha” degan shu she’rni yaratadi.

*Qora chimmat berkitganda yuzingni,
Jonsiz devor tinglar edi so‘zingni,
Ko‘z yoshing-la istar eding yurakdan,
So‘nmas edi umidlaring tilakdan
Erk quyoshi kishanlarni eritdi,
Nurli zulmatlari yoritdi
Gullab tursin qalbingdagi tilaklar
Kishanlarda egilmasin bilaklar,
Qaytma ortga, olg‘a tomon ketaver,
Erk kuyining erk torila chertaver*

Bu she’r “Yangi yo‘l” jurnalining 1928 yildagi 6-sonida chop etilgan edi.

Muzayyanada poeziyaga bo‘lgan muhabbat kundan-kunga o‘sa bordi. U mumtoz shoirlarning asarlarini o‘rganish bilan bir qatorda, Hamza Hakimzoda, G‘ayratiy, Sadridin Ayniy kabi shoirlarning ijodlarini ham qunt bilan o‘qiydi. Muzayyananing, ayniqsa, Hamza Hakimzoda bilan uchrashuvi, uning hayotida, ijodiy kamolotida muhim voqea bo‘lib qoldi.

¹ Ўша жойда, 18-бет

Muzayyana Hamza Hakimzodaning qimmatli maslahatlaridan ilhomlanib qator she'rlar, dostonlar, ocherklar yaratdi.

Muzayyana tabiat go'zalligiga bolalik chog'laridayoq oshiq edi. Shoiraning yoz tasviri jilvalangan "Yoz ertaklari" (1929yil) she'rida obrazli badiiy vositalar, ramziy ifodalar ko'plab uchraydi.

*Tabiatning go'zal qizi-ko'klamoy,
Tutdi nozik qo'lga nurdn yelpig'ich
Asta chiqdi o'z ko'rkini ko'rsatib,
Gullar to'la yashil libos kiyinmish...
Umidimning yoqut rangli chechagiyu
Ko'kragiga sevib taqmish-ko'rdim men
Tabassum-la aytib menga tilagin,
Tilagiga chindan maftun bo'ldim men.¹*

Bu misralardan ko'rinadiki, shoira jonlantirish yo'li bilan bahor faslini – gullar to'la yashil lisob kiygan", "yoqut rangli" chamanzorlarni, insonning eng nozik tuyg'ularini uyg'otuvchi, ezgu tilaklarini ifodalovchi bir mo'jiza sifatida tasvirleydi.

*Ko'pni ko'rgan usta tabiat bobo,
Ko'ngliga qaytadan oldi jarang soz
Yangi qo'shiq, yangi bir kuy tuzdi-da
Sozidan yangratdi shunday bir ovoz
Bugun bizga keldi yangi bir qo'noq
Sochi oltin, ko'zi olov, oti yoz!²*

Shoira o'z she'rida o'zbek mumtoz poeziyasida mavjud bo'lgan tabiatni tasvirlashdagi o'xshatish, sifatlashlardan fikr va mazmuni ifodalashda poetik tildan o'ziga xos yo'sinda mahorat bilan foydalana olgan.

Shoiraning tabiat fasllari turkumiga kirgan she'rlarida garchi mazmun teranligi yetarli bo'lmas-da, qofiya, vazn, pishiq ishlangan, badiiy vositalar o'z o'rnida qo'llanganligini ko'ramiz.

¹ Музейяна Алавия. "Севинчларим" тўплами. Т., Ўзадабиёт нашр, 1959, 21-бет

² Музейяна Алавия. "Севинчларим" тўплами. Т., Ўзадабиёт нашр, 1959, 21-бет

Lekin bu yillar Muzayyananing o‘qish, o‘rganish yillari edi. Shunday bo‘lsa-da, u ilk ijodida she‘rlarni qaynoq, jo‘shqin ilhom bilan yozdi. Uning she‘rlaridagi “erk”, “najot”, “umid”, “ istak”, “tilak”, “nur” kabi so‘zlar o‘sha davr shoironing qator she‘rlaridagi “erk quyoshi”, “ozodlik quyoshi”, “inqilobiy quyosh”, “erk kuychisi” kabi iboralar bilan hamohang bo‘lib ketar edi. Erkinlik, hurriyat ma‘nolarini anglatuvchi bu so‘z va iboralar “kishan”, “g‘ov”, “to‘siq”, “zanjir”, “zulm”, “dev”, “qora bulut” singari so‘zlarga ma‘no jihatdan qarama-qarshi qo‘llanilar edi. Shuning uchun ham garchi shoironing ba‘zi she‘rlarida bu so‘zlar ko‘proq ishlatilgan bo‘lsa ham, o‘sha davr o‘zbek poeziyasining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqanligi uchun ijobiy hodisa bo‘lib qoldi.

Shoira Muzayyana Alaviya poeziyasida o‘zbek xotin-qizlarining yaratuvchiligi, yangi turmush ijodkorlari ekanligi, mehnatda ko‘rsatgan jonbozliklari ham alohida o‘rin egallaydi. Muzayyananing ijodiy mehnat haqidagi “Uchrashganda” she‘ri bu jihatdan xarakterlidir.

She‘rda mehnati tufayli baxt topgan Zebo zavodda tokar bo‘lib ishlaydi, uning ishlashi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan, uning singlisi MGUda o‘qiydi. Shoira opashunday faktlar orqali realistik voqelikni aks ettiradi. U xotin-qizlarimizning juda, o‘qishda yuksalayotganligini yurak tuyg‘ulari bilan ifodalaydi:

*Yuksaldi ishda, o‘qishda elim,
O‘qir cho‘pon o‘g‘li, tokarning qizi¹*

Muzayyananing “Bahor” sho‘e‘rida esa, kollektiv mehnati ulug‘lanadi. Bahor faslining shu qadar go‘zalligi boisi nima degan savolga, inson mehnati deb javob beradi shoira. Bu o‘rinda bahor so‘ziga, uning asl ma‘nosidan tashqari ijtimoiy ma‘no ham yuklaydi. Muzayyana bahor orqali yurtdoshlarininig baxt-saodatini kuyladi:

*Barcha birlikda og‘irni yengar,
Hurlikdagi birlik har ishni o‘nglar
Qishu yoz, kuz, bahor barchasida ham.
Keng jahon baxtimiz qo‘shig‘in tinglar.²*

deb, bahorni baxt, ozodlik ramzi sifatida tasvirlaydi.

¹ Музейяна Алавия. “Севинчларим” тўплами. Т., Ўзадабиёт нашр, 1959, 7-бет

² Ўша жойда

Shoira nozik o‘xshatish, tasvirlar orqali jamoa xo‘jaligi dalalarida ishlayotgan xotin-qizlarning quvnoq chehralarini ko‘z oldingizda namoyon etadi:

*Bizning elda shunday boshlanar bahor,
Bir bahor haqida yuzlab doston bor.
Har bir varag‘ini ochib o‘qisang,
Hur mehnat yaratgan minglab bo‘ston bor.
Doston mazmunida kurash va zafar
G‘oliblik g‘ururi dunyolar qadar*

Muzayyananing bu she‘ri uning endi kamolot sari intilganini, yirik, ijtimoiy mazmuni ham kichik she‘rda ifodalay olish qobiliyatiga ega bo‘lib qolganligini, xullas, ijod-mahoratidan darak beradi.

Uning “Bahorda” nomli boshqa she‘rida ham ozod mehnat nashidasi, sevgi-muhabbat, vafo motivlari kuylanadi. Bularning hammasi sharafli mehnat mavzui bilan bog‘lanadi. Sharq xalq qo‘shiqlari motivida yaratilgan, uning bir qismi besh hijoli bo‘lsa, ikkinchi qismi o‘lan (aytishuv) tarzida yaratilgan.

Bir poetik asarni turli vaznda yaratish har qanday qalamkashdan yuksak san‘atkorlikni talab etadi. Chunki turli hijolarda yaratilgan birgina asar san‘atkorning qalb tuyg‘usiga, intonatsiyasiga, fikrning bo‘linib-bo‘linib quyilib kelishiga bog‘liqdir. Odatda, o‘lan usulini xalq qo‘shiqlarida ko‘plab uchramiz. Bu jamoaviy ijoddir. Yozma adabiyotda esa, bu narsa kam uchraydi. Muzayyananing o‘lan usulida muvaffaqiyatli asar yaratganligi uchun xalq qo‘shiqlarini yaxshi bilganligi, xalq orasida ko‘p yurganligining samarasidir. Zotan, bu she‘r ham Muzayyananing Samarqand viloyat Xatirchi tumanidagi xo‘jalik yaylovida, cho‘ponlar orasida yurganida maydonga kelgan.

2. DIL DOSTONLARI.

Muzayyana Alaviyaning o‘zbek mumtoz adabiyoti, o‘zbek poeziyasini chuqur bilganligi uning faqat original badiiy she‘rlar ijod etishida emas, balki katta poetik asarlar yaratishida ham namoyon bo‘ldi. Shoira bir necha dostonlar muallifi sifatida ma‘lum. Ularning ko‘pchiligida muhim bir mavzu – o‘zbek xalqi. Xususan, o‘zbek xotin-qizlarinin hayotini ko‘rsatish jarayonida ularning baxtli turmushini tasvirlash yetakchi o‘rin tutadi. Bu asarlar ichida shoiraning “Gulbahor”¹ nomli dostoni alohida ahamiyatga ega. Doston 1939 yilda shoiraning

¹Музейяна Алавия. “Севинчларим” тўплами. Т., Ўздабиёт нашр, 1959, 22-37-бетлар

Ohangaron safari natijasida yozilgan. Unda qishloq xo'jaligining xotiralari, qishloqdagi jiddiy sinfiy kurash, suv uchun kurashda qurbon bo'lganlar va boshqa voqealar badiiy bayon etiladi.

Dostonda kishilar baxti uchun, internatsionalizm tantanasi uchun kurash mavzusi keng aks etgan. Unda Stepan bobo va uning qizi Lyuba obrazlari vositasida qishloq aholisining o'sha davrdagi murakkab hayoti jonli obraz va epizodlarda mahorat bilan tasvirlanadi.

Bu poemada san'atkor shoiraning hayot bilan birga qadam qo'yishi, sodir bo'layotgan voqealarni chuqur mushohada etishi, kishilarning ichki kechinmalarini, ruhiy dunyolarini nozik fahmlash yaqqol ko'rinib turadi.

Shunisi xarakterliki, poemada ishtirok etayotgan ko'pchilik obrazlar tarixiy shaxslar. Shoira asarda mavhum mavzu zo'rma-zo'raki konfliktlarga qo'l urmaydi. Materialni hayotning o'zidan oladi.

Muzayyana asar voqealarining jonli ishtirokchisiga aylanib ketadi. Bu esa o'z navbatida dostonning g'oyaviy-estetik qimmatini oshirgan.

Asar konfliktida o'tmishni hozirgi zamonga taqqoslash yetakchi o'rin tutadi. Poemaning qahramonlari Gulbahor, uning otasi Ergash, akasi Mahkam, ordenli kolxozchi Juman, kolxozchilardan Lyuba, Anzirat, Olim, Gulsanam, Oynisa kabilarning hayoti tasvirlanadi.

Muzayyana opa davrning ulug'vorligini ko'rsatish uchun Gulbahor haqida to'liq tasavvur hosil qilish maqsadida dostonda murakkab situatsiyalar yaratadi. Gulbahorning otasi Ergash dala shiyponida majlisda so'zga chiqib kishilarning o'tmishi, baxtli hayoti va orzu-umidlari haqida so'zlab beradi. Bu bilan shoira asarning bosh qahramoni Gulbahorning ijtimoiy-oilaviy ahvoli bilan tanishtirishni maqsad qilib qo'yadi.

Dala shiyponidagi majlisda Ergashdan so'ng Anzirat so'zlaydi. Anziratning polvon akasi suv uchun kurashda qurbon bo'lgani, boylarning va kambag'allarning hayoti tasvirlanadi.

Dostonda Gulbahor va Olimjonning to'yi tasvirida shoira xalq ijodi-terminlardan mahorat bilan foydalanadi.

Muzayyana opa she'rlarida aforizm darajasiga ko'tarilgan misollar ko'p. Shoiraning "ko'rpang bo'ldi g'urbat, yostig'ing kulfat", "ko'zingda qonli yosh, labingda hasrat" kabi jumllarida, xalq ijodining, xususan maqollarning badiiy o'zlashtirilganligi yaqqol ko'rinib turadi. Muzayyana Alaviya xotin-qizlar orasida mehnatdan qochuvchi, erinchoq, zebi-ziyatga berilib ketgan ba'zi tannoz ayollarni zaharxanda bilan tilga oladi. Gulbahorning dugonalari unga qarata:

*"Ertaga to'ying-ku, ishdasan hali,
Tayyorlan to'yingga, ishni qo'y nari!
Bu so'zlarga qarshi edi Gulsanam,*

*“–To‘yiga qarashib bo‘lamiz hamdam,
Ishlay qolsin, ertaga bo‘lar kelinchak
Eri erkalatsa, bo‘lar erinchak”*

deyishadi. Shoira ikki yoshing sevgisi zamirida foydali ijtimoiy mehnat lazzati, haqiqiy oilaviy hayotning nashidalarini tasvirlaydi. Shoira Gulbahor tilidan yozadi:

*Menga berilgandir sharaf ixtiyor,
Mehnatim dunyoda: dilim madorim...
Eng sevgan sevgilim –jonajon yorim,
Shu mehnat-la birga yorim sevaman
Sevgilim jon desa, jonim beraman
U ham mehnatim-la meni sevgandir,
Yurak sovg‘asini menga bergandir...
Yashashda, mehnatda ikkimiz yo‘ldosh.¹*

Muzayyana Alaviyaning “Gulbahor” dostoni kompozitsion jihatdan puxta ishlangan. Shoira real bir xo‘jalik hayotidagi bir voqcheani olib tasvirlagan bo‘lsa-da, asar kichik-kichik uch tarixiy lavhani o‘z ichiga oladi. Bu lavhalarning har birining o‘zini mustaqil asar desak bo‘ladi. Ularning har biri tugal maqsadga ega. Badiiy jihatdan ham bir butundir.

Shu bilan birga, har bir lavhada ko‘tarilgan masala asarning umumiy g‘oyaviy yo‘nalishi bilan, ya‘ni kolxoz hayotini, erkin sevgini, kishilar o‘rtasidagi do‘stlikni, kelajakka ishonch g‘oyalarini ifodalashga singib ketadi.

Shoira fikrni-g‘oyani badiiy o‘zlashtirib, poetik tilda ifodalashga ham alohida e‘tibor beradi. U Gulbahorning go‘zalligini tasvirlar ekan, mehnat qizning husniga yanada husn qo‘shgini va bu qizning o‘ziga yarasha nazokati borligini ifodalaydi,

*Qop-qora qoshlari qunduz suzganday,
Ikkisi o‘ynaydi bir ahd tuzganday.*

Qizning ikki qoshidagi harakat ana shunday jozibali, jonli ifodalanadi.

¹ Музейяна Алавия. “Севинчларим” тўплами. Т., Ўздабиёт нашр, 1959, 33-бет

*Oftob yuzi qilar ko'ngilni ravshan,
Ko'rganlar der: bu qanday gulshan.*

Bu parchadagi “oftob yuzi” iborasi oftobning ravshan ko‘rinishi ko‘ngilni ravshan qiladi, uning xush chehrasini ko‘rganlar esa bu qanday gulshan, deb hayratga tushadilar, degan fikrni ifodalashga qaratilgan. Gulbahorning tashqi ko‘rinishi bilan ichki holati o‘zaro bog‘langan holda ko‘rsatiladi va shoira tashqi go‘zallikni tasvirlab kelib, o‘quvchida lirik kayfiyat paydo qiladi:

*Kipriklar bir enlik bosar yuzidan,
Ohular rashk qilar shahlo ko'zidan.
Tishlari durdona, lablari marjon
So'zlari o'likka berar edi jon.*

Mana shu tashqi go‘zallikka ega bo‘lgan Gulbahorning so‘zlaridagi o‘likka jon ato qiladigan insoniylik xususiyati uning yoqimlilikini yanada oshiradi, tashqi tomondan esa ko‘rgan ko‘zlarga rohat bag‘ishlaydi. Bu o‘rinda shoiraning portret yaratishda mumtoz usuldan qanchalik ustalik bilan foydalanganligi ko‘rinib turadi. Bir detal. Kuyov kelinga sovg‘a keltiradi. Shu o‘rinda Gulbahorning tortinchoqligi, ahloqiy pokligi, hayosi uni yanada go‘zallashtirib yuboradi, qiz tabiatining jozibasini yanada oshiradi:

*Munchoqday qutiga solingan soat,
Gulbahor nozidan ko'rib farog'at,
Taqildi u oltin soat bilakka,
Olim ham erishdi kutgan tilakka.*

Ko‘rinadiki, Muzayyana Alaviya xotin-qizlar baxti mavzusi asosida o‘sha davrni, baxt, muhabbat va mehnatni yuqori pardalarda tarannum etadi.

Muzayyana Alaviya xalq dostonlari yo‘lida “Zaynab uchgan”¹ (1958) nomli boshqa bir doston ham yaratgan. Bu dostonda ko‘tarilgan masala “Gulbahor” dostonida ifodalangan muammolardan bir muncha boshqacha xarakterdadir. “Zaynab uchgan” asarida o‘zbek xalq

¹ Музейяна Алавия. “Севинчларим” тўплами. Т., Ўздабиёт нашр, 1959, 38-39-бетлар

ijodining ba'zi namunalari zaminida inson erki, sevgi va muhabbat, mehr va vafo, o'z taqdirini o'zi hal qilish uchun kurash g'oyasi aks ettiriladi.

Zaynab, O'roz, Yo'ldosh, Maryam, Oysuluv momo, Qoraboy kabi ijobiy personajlar bilan bir qatorda O'sarboy va boyning bir necha boyvachcha hamda boyvuchchalari kabi salbiy personajlar o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshilik jarayonida haqiqat, adolat, ozodlik uchun kurash g'oyalari san'atkor qalami bilan ifodalanadi. Shoira bir guruh aspirant va talabalarga boshliq bo'lib xalq ijodiy durdonalarini, baxshi dostonchilarni qidirib Ohangaronga borganda, biri ertakchi chol qo'biz chalib mahalliy xalq orasida keng tarqalgan Zaynab haqida ertakni aytib beradi. Bu ertak Muzayyana Alaviyaga qattiq ta'sir etadi. Shoira keyinchalik shu xalq ertagi asosida doston yaratadi.

Shoiraning asardan ko'zlagan maqsadi, adolat g'oyasini kuylashdir. Shoira Maryamning Yo'ldoshga bo'lgan sadoqatini yuksak samimiyat bilan tasvirlaydi. O'sarboy Maryamning Sultonboyga uchinchi xotin bo'lishini aytganda, go'yo uning ustidan cho'g' to'kib yuborganday bo'ladi. O'zini yo'qotgan Maryam sevikli yorining qabriga qarab ketadi. Hatto achchiq musibatdan, judolikdan o'limni afzal bilgan Maryam ko'kdagi yulduzlarga murojaat etib, "Mening ustimga tosh bo'lib to'kilgin, yuragimning o'tini ko'z yoshimning suvlari o'chira olmadi, sen o'chir" deydi. Hayotda yong'inlarni suvdan tashqari yana tosh, qum to'kib o'chirish odati ham bor. Xalq orasidagi bu odat asarga mohirlik bilan kiritilgani uchun kuchli emotsiya uyg'otadi.

Yozuvchida Maryamga nisbatan qattiq achinish, O'sar kabi xasis, ma'naviy qashshoq, molu-dunyo boyligi bilan ko'tarilib yurgan bir hovuch zararli, kishi umrini og'usi bo'lgan yovuzlarga nisbatan qahr-g'azab kuchayadi. G'am loyiga botgan Maryam kabilarni do'stlar qutqaradilar. Alamining zo'ridan hushidan ketayotgan Maryamning oldiga qizchasi Zaynabni yetaklab Oysuluv momo keladi:

Nima bo'ldi, senga, qizim oy Maryam,

Unut Yo'ldoshingni, sen uni unut!

Mana, qizing Zaynab, undan umid kut!

Maryam birdan o'ziga keladi va :

"Jinni bo'ldimmi" deb o'zi o'ziga,

Boshini ko'tarib boqdi qiziga

Qorong'i kechalar to'lganli sirga,

Asta-sekin bosib ketdilar birga,

Ajabki ko'zlarida qurib qoldi yosh,

Bag'riga urganday edi Maryam tosh
Onasi oldida yayradi Zynab,
Nima kelar boshga bilmaydi o'ynab¹

Oysuluv momo Maryamni ovutish uchun o'zining ko'rgan kunlari ham Maryamnikidan og'irroq ekanligini gapirib, Maryamga nasihat qilib berardi. Jovuzkash bobo bilan qirq yildan ortiq umr ko'rgan Oysuluv momoning sodda, biyron so'zlaridan uning eng zo'r qayg'usi bolasizlik ekani, o'zi "do'zax" azoblaridan nihoyatda qo'rqishi anglashilib turadi. Bu nasihatlarida Maryamga, "sen erga tegib ketaver, tirikligimda Zaynab men bilan qoladi, o'lganimdan so'ng esa yana sen bilan qoladi", degan fikrni aytadi. Bu hayotiy detallar ijodchining juda zo'r mushohada egasi ekanligini ko'rsatib turishi bilan birga, yuz berayotgan voqealarga o'zi ishtirokchiday his etib, tushunib tasvirlashga uning haqiqiy san'atkorligidan dalolat beradi.

Dostonda Oysuluv momo va Zaynabning uzoqqa ketgan Maryam haqidagi o'ylari orqali kishining kuchli hayajonga soluvchi lavhalar bayoni beriladi.

Shoira adolat va hurlikning o'z-o'zidan kelmasligi, uni kurashib qo'lga kiritish g'oyasini targ'ib etadi. Zaynab o'z ota-onasi, Yo'ldosh va Maryamdan, enagasi Oysuluv momodan (ularning o'limlari tufayli) ajralib qolganligi, og'ir qiyinchiliklarni boshidan kechirishga qaramay dushmanga bo'yin egmaydi.

Qattiq qiyinchiliklarda o'sib, o'n olti yoshga kirgan Zaynabga boy, boyvachchalarning xurujlari, ularning Zaynabni qo'lga kiritish uchun xudbinlik qilishga intilishlari – qizning oq-qorani tanishiga yordam beradi. Buning ustiga boy va uning xotinlari tomonidan Zaynabga og'ir ishlarni qildirilishi, uni odam sanamay haqoratlashlari, ma'suma qizning g'azabini oshiradi. Biroq uning Oysuluv momo, O'roz, Qoravoy kabi oddiy mehnatkash xalq vakillaridan do'stlari bor. U boy uyidagi tutqunlikka ortiqcha chiday olmaydi va qochib ketadi.

Dostonda muhabbat tuyg'ulari kuchli ehtiros bilan kuylanadi. Buni biz Zaynab va O'rozning bir-birlariga sadoqati, ularning orzu va kurashlarida ko'ramiz. Zaynabning muhabbati juda nozik: u yaxshini sevadi, yomonga nafrat ko'zi bilan qaraydi.

U hatto qishu yozning o'tganligini ham sezmay, O'rozni kutadi. O'roz so'zi eski o'zbek tilida baxt ma'nosini bildiradi. Bu yerda shoira "O'rozni kutadi" deyishi bilan "baxtini kutadi" degan ma'noni ifodalaydi. Muzayyana Alaviya cho'pon O'roz qiyofasini shunday san'atkorona chizadi:

¹ Музайяна Алавия. "Севинчларим" тўплами. Т., Ўздабиёт нашр, 1959, 44-бет

*O'roz bir cho'pondir, yag'rini yoziq,
Qiz uchun bir so'zi olti oy oziq.
Sevgani yirtiq to'p, yurgan qo'ychidir
Ko'p ichida dong qo'ygan o'lanchidir
Baxt ma'nosi berar O'roz degan ot
Ne baxt, O'roz bilan ketsa bu hayot
Zoriqadi Zaynab, kutadi yorni
Unutadi o'zni, yo'q ila borni.¹*

Zaynab sevgilisi cho'ponning kelishini kutishning o'zida katta lazzat sezadi. Zaynab boyvachchalarning hiylalarini, ya'ni jo'rttaga O'rozni qo'y haydatib yuborganliklarini sezib qoladi va uni kelib qolar degan umid bilan har kuni yo'liga- toqqa qaraydi.

O'roz bilan yoshlikda o'tkazgan kunlarini eslasa ham, uni tushida ko'rsa ham, u haqda hayol sursa ham lazzat sezadi. Shuning uchun qushlarni sayrashi, suvlarning oqishi unga qo'shiq bo'lib eshitaladi. Hatto yoqimli tong shamolidan tollarning silkinishi uni to'lqinlantiradi, tunlarda oyning nur to'kishi ham unga zavq bag'ishlaydi. Zaynabning ichki ruhiy kechinmalarini tasvirlagan shoir o'zining xulq –atvori haqida gapirgan so'zlaridagi “qizlar tabiati yigitlardan mardlik kutadi, yigitlar tabiati bo'lsa qizlardan hayo talab qiladi, jasorat yigit tomonidan bo'ladi” kabi fikrlarni dostonga singdiradi.

Bir bahor kechasi O'roz jasorat bilan Zaynab yotgan qo'rg'on tomonga yo'l oladi. Tut daraxtining tagida yotgan Zaynabning oldiga O'roz asta-asta boradi.”Qo'rqma, men O'rozman” deydi. Ikkovi sekin biri oldin, biri keyin chiqib ketadilar. O'rozga, hali ko'zidan uyqusi qochmagan Zaynab shu qadar go'zal ko'rinadiki, u osmonning oyi bunchalik tugal bo'maydi, deb o'ylaydi. Ko'zlar uchrashganda tushimizmi, o'ngimizmi, deyishadi.

Shoira yigit bilan qizning sevgisini mahorat bilan tasvirlaydi. Dostonni o'qir ekansiz, beixtiyor Alisher Navoiyning “Gul yirtiq cho'poni bilan ham mahubdir” degan fikrlari kishi esiga tushadi. Zaynabning ma'naviy go'zalligi uning so'zlarida va sevgan yigiti O'roz bilan bo'lgan suhbatlarida ochila boradi. Jafoli, sertashvish, yig'isiz kuni bo'lmaydigan Zaynabning umidi faqat O'rozdir. O'roz tasalli baradi unga, O'roz suyangan tog'i, ishongan bog'i. O'roz desa hatto bahor gullari ochilib, bulbullar sayraydi. O'roz desa uning og'ir ishlari yengil tuyuladi, oyoqlari chaqqon bo'lib ketadi. Chunki uning sevgan yigiti jasur, pahlavon. U Zaynabni “zulmat kechasidagi chirog'im” deb erkalatadi. Zaynab “meni qutqarish uchun tadbir toping” deganda,

¹ Музейяна Алавия. “Севинчларим” тўплами. Т., Ўздабиёт нашр, 1959, 48-бет

“sen bo‘yimga sochingni zanjir qilsang, sening asiring bo‘lib turib, seni qutqarish mening xohishim” deydi. Demak, yanglishib sevgan emas. Haqiqiy inson ishq-muhabbat egasini do‘st tutadi. Zaynab va O‘roz ana shu fazilatlar sohibi edilar.

Kuzatishimizcha, shoironing asarlarida uning hayot tajribalari aks etadi. “Muhabbat-do‘stlik va hurmatdan kelgan qalbning muqaddas tuyg‘usidir. Bu tuyg‘u mehnatda kamol topadi. Kishining vijdoni, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan sabotli qilib qo‘yadi. Muhabbat-hasad, kibr, baxillik, ko‘rolmaslik, umuman ahloq rad etgan tubanliklardan uzoqlashtiradi” degan fikrlarini o‘zi yaratgan ijobiy obrazlarga singdirib, qahramonlarning ichki va tashqi go‘zalliklarini tasvirlaydi.

Shoira chin muhabbatni ulug‘laydi, soxta muhabbatni, yuzaki sevgi izhor etuvchi har qanday shaxsni qoralaydi. Asarda O‘sarboyning katta o‘g‘lining soxta muhabbati fosh etiladi. Shoira bunday kimsalarda hirs, hayvoniy ishqgina bo‘lib, haqiqiy vafoli, samimiy ishqdan asar ham topilmasligini, haqiqiy muhabbat insonparvarlik tuyg‘ulari bilan bunyodga kelishini haqqoniy qilib ifodalaydi.

Muzayyana Alaviya boyning kenja o‘g‘li va o‘n ikki yoshli kelinning oilasi zaminida hech qanday muhabbatning yo‘q ekanligini ochib tashlaydi. Bular oilasidagi “muhabbat” – tubanlik, insofsizlik, ma’naviy tushkunlik, maishatparastlik va boshqa shunga o‘xshash salbiy xususiyatlardangina tarkib topgan. Asardagi bu holatlar shoira tomonidan yuksak did bilan tasvirlanadi.

O‘roz va Zaynab, Maryam va Yo‘ldosh muhabbatlari esa vafo, sadoqat, mehr, do‘stlik, hayo, ma’naviy boylik, hurmat, andisha, g‘amxo‘rlik va shunga o‘xshash ijobiy xususiyatlar zaminida vujudga kelgan. Bu chin ma’nodagi muhabbat asosida insoniy sevgi asosida halol mehnat yotadi. Shoironing fikricha, haqiqiy mehnat tufayli vujudga kelgan muhabbat- abadiydir, hayotning ma’nosidir.

Ko‘rinib turibdiki, shoira muhabbat bobida ikki xil qarashni aks ettiradi. Bu parallelizm, kontrast priyomi vositasida Muzayyana Alaviya vafoli muhabbatni, nozik insoniy tuyg‘ularni ulug‘laydi. Buning uchun shoira Zaynab bilan boyning kenja o‘g‘lini to‘qnashtiradi. Bu to‘qnashuvda chinakam ishq-muhabbatning g‘olib chiqishini ko‘rsatadi. Boyning kenja o‘g‘li Zaynab turgan uyga kelgandan so‘nggi dialog:

Kirdi uyga Zaynabga ochib quchoq,

– Mayli o‘ldir, Zaynab, mayli, qonim soch

Qo‘lin tutib, beliga qo‘l uzatdi,

G‘azab bilan Zaynab shapaloq tortdi.

*–sendan hazarim bor, yuqumli ofat
Sen yursang yerlar ham qilolmas toqat.¹*

Bu satrlarda O‘rozni o‘ldiga chiqarib Zaynabga o‘zi erishmoqchi bo‘lgan boyvachcha kirdikorlari, hayosizligi ochib tashlanadi. Zaynab siymosida olijanoblik, poklik, haqqoniylik, jasurlik, to‘la ma’nodagi sevgi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham boyning o‘g‘li Zaynabning keskin javobiga, qattiq zarbasiga uchraydi

Shoira “maqsadsiz yashash tiriklik emas, “umid bo‘lmasa hayotda lazzat bo‘lmas edi” degan fikrdan kelib chiqib Zaynabning mana shu og‘ir holatini tasvirlar ekan, uni hatto, o‘limdan qo‘rqmas, unga yuzma-yuz boruvchi jasoratli shaxs sifatida gavalantiradi. Zaynabning birdan-bir orzusi, umidi O‘roz o‘lgan bo‘lsa, azobga, mashaqqatlarga to‘lgan bu dunyodan voz kechishga, ketishga ahd qiladi. U O‘rozga sadoqati tufayli hayotdan voz kechishga ahd qilib, baland tog‘dan o‘zini to‘lqinli Ohangaron daryosiga tashlaydi. Bu holat Zaynabning tushkunlikka tushganligi, uning irodasidagi bo‘shlikni ko‘rsatmaydi, aksincha, Zaynab muhabbatni o‘zining baxti, hayoti deb biladi. Zaynab uchun muhabbat va vafo chin ma’nodagi hayotdir, umrning mazmunidir. U daryoga o‘zini tashlar ekan, boylar va zolimlarning adolatsiz, tahqirlovchi, tengsizlik, tinchsizlik dunyosida, ular ichida yashashdan nomus va adolat yo‘lida o‘lishni afzal ko‘radi. Shuning uchun ham Zaynabning o‘limga yuzma-yuz borishi tengsizlikka qarshi qaratilgan isyondir. Shu jihatdan Zaynab Hamzaning Jamilasiga juda o‘xshab ketadi.

X U L O S A

O‘zbek xalqi ijod durdonalarini qidirish, yig‘ish, ular ustida ilmiy tekshirish ishlari olib borish va yana xalqning o‘ziga taqdim etish bilan o‘zbek folkloristikasini rivojlantirish sohasida katta ish olib borgan Hodi Tillaevich Zarifovga, fan kandidatlarini Muzayyana Alaviya va Mansur Afzalov kabi zahmatkash olimlarga har qancha minnatdorchilik bildirsak, ular bilan faxrlansak arziydi.

Uzoq tarixga ega bo‘lgan va yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlagan o‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganish 1920 yillardan boshlangan. O‘zbekistonda 1926 yili “O‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi” tuzildi. Bu qo‘mitaning asosiy vositalaridan biri xalqning ma’naviy madaniyati bo‘lgan og‘zaki badiiy ijodiyotini o‘rganishdan iborat edi. Ma’lumki.

¹ Музайяна Алавия. “Севинчларим” тўплами. Т., Ўздабиёт нашр, 1959, 52-бет

Og‘zaki badiiy ijod xalq ommasining turmush tirikchiligi, orzu-umidlari, qayg‘u-shodliklari, urf-odatlarini aks ettiradigan muhim ma‘naviy-estekti xazindir.

Qo‘mita “O‘zbek el adabiyotini qanday yozib olish kerak”, “Kimning og‘zidan yozish kerak”, “Yozilgan el adabiyoti to‘g‘risida qanday ma‘lumotlarni berish kerak”ligi haqida ko‘rsatmalar berga edi. Qo‘mittaning hay‘at a‘zolaridan biri, o‘zbek folkloristikasining asoschisi Hodi Tillaevich Zarifoq bo‘lib, bu muhtaram olim rahbarligida juda katta ishlar qilindi.

Muzayyana Alaviya o‘zbek xotin-qizlari orasida yetilib chiqqan birinchi folklorist olimadir.

Muzayyana Alaviya 1925-1926 yillardan boshlab xotin-qizlar tomonidan aytilgan qo‘shiq, ertak, maqolalarni to‘play boshlagan. Bu materiallar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining folklor sektori fondida saqlanmoqda.

Respublika doirasida, xalq qo‘shiqlarini izlab, Muzayyana Alaviya bormagan biror tuman, birorta qishloq bo‘lmasa kerak. U o‘zining qirq yillik tadqiqotlarini umumlashtirib 1959 yilda “O‘zbek xalq qo‘shiqlari, 1974 yilda “O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari” nomli muhim ilmiy asarlar yaratdi. Bu kitoblarni o‘qigan har bir odam, Muzayyana Alaviya xalq ijodining benazir donishmani degan xulosaga keladi.

Muzayyana Alaviya ilk ijodini she‘rlar yozishdan boshlagan. U 1926-1927 yillarda she‘riyatning ilk paytlari bo‘lib, Xosiyat Tillaxonova, Oydin Sobirovalarning ilk she‘riy mashqlari matbuotda ko‘rina boshlagan davr edi. Muzayyana Alaviya ham ular safidan joy olib, o‘nlab she‘rlar, dostonlar, ocherk va hikoyalar yozdi.

Muzayyana Alaviyaning “Kamtarlik –yaxshi fazilat”, “Odamiylik haqida”, “Yon qo‘shnim –jon qo‘shnim” nomli axloq –odob mavzuidagi risollari, she‘r, doston va hikoyalardan iborat “Sevinchlarim” nomli to‘plami ham bor.

Xullas, Muzayyana Alaviya serqirra ijodkor, taniqli olima va folklorshunos, xalq og‘zaki ijodi durdonalarining eng fidoiyi jonkuryai edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T., O‘zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat –engilmas kuch. -T., Ma‘naviyat, 2008
3. Prezident Islom Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilliliga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 1999 yil, 9 noyabr
4. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. -T., O‘qituvchi, 1990.

5. Muzayyana Alaviya. Sevinchlarim to'plami. -T., O'zadabiynashr, 1959
6. Mahbuba Qodirova. Muzayyana Alaviya.-T., G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968
7. To'xtasin Jalolov. O'zbek shoirlari. -T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980
8. Muzayyana Alaviya. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari.-T., Fan, 1974
9. Muzayyana Alaviya. O'zbek xalq qo'shiqlari. (Tuzuvchilar: K.Olimboeva, F.Karomatov). -T., 1956
10. Alisher Navoiy. Hamsa. -T., Fan, 1958
11. Muzayyana Alaviya. O'zbek xalq qo'shiqlari.- T., 1959
12. F.M.Karamatov. Uzbekskaya narodnaya instrumentalnaya muzyka.T., 1972
13. F.M.Karamatov. Xorazm xalq qo'shiqlaridan namunalar. Nashrga tayyorlovchi J.Qobulniyozov, T., 1967